



O'ZBEKISTONDA SIYOSIY MADANIYATNI YUKSALTIRISH

Abduraximov Qilichbek

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Fakultet: Xalqaro munosabatlar

e-mail: qilichbeksword27@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqola siyosiy madaniyatning mazmuni, uning jamiyat va davlat hayotidagi o'рни hamda O'zbekistonda siyosiy madaniyatni yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilingan. Avvalo, siyosiy madaniyat tushunchasining mazmuni, uning jamiyat barqarorligi va fuqarolar xulq-atvoriga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, G'arb davlatlari — xususan Skandinaviya, Kanada va Shveysariyada fuqarolarning siyosiy jarayonlarda yuqori faolligi misol qilib olinib, siyosiy madaniyatning rivojlangan davlatlar taraqqiyotidagi ahamiyati ko'rsatib beriladi. Shuningdek, yoshlarning siyosiy ongi va fuqarolik faolligini oshirishning ahamiyati, siyosiy manipulyatsiyalardan himoya qilish, ularda vatanparvarlik va mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish bo'yicha davlat siyosatining yo'nalishlari ko'rsatib o'tiladi. Ish yakunida siyosiy madaniyatni yuksaltirish jamiyat barqarorligi, qonun ustuvorligi va demokratik yangilanish uchun muhim omil ekani ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *siyosiy madaniyat, chora-tadbirlar, qaror va konsepsiyalar, ijtimoiy faollik, yoshlarning siyosiy ongi, oila va jamiyat.*

"Siyosiy madaniyat — bu jamiyatning hayotga nisbatan umumiy ruhiyati, qadriyatlari va psixologik holatidir. Siyosiy tizimni tushunish uchun avvalo xalqning siyosiy qadriyatlarini tushunish kerak."

(siyosatshunos Lucien Pye)

Siyosiy madaniyat tushunchasi ilk bor Iogann Gerder tomonidan fanga termin sifatida kiritilgan. Bu tushuncha ko'p siyosatshunos olimlar tomonidan turli xil yo'llar bilan tushuntirilgan bo'lsa ham, barchasining asosiy g'oya va mazmuni bir biridan uncha farq qilmaydi. Siyosiy madaniyat- bu biror mamlakat yoki jamiyat odamlari uchun xos bo'lgan, ularning siyosatini olib borish yuzasidan vujudga kelgan qadriyatlar, normalar va an'analarni o'zida mujassam etgan ommaviy xulq-atvor. O'z o'rnida bu turdagi ommaviy xulq-atvor har doim hokimiyat va siyosat bilan chambarchas bog'liqdir. Siyosiy madaniyat orqali faqatgina fuqarolar davlat siyosatiga ta'sir etib qolmay, u davlat faoliyatida ham muhim o'rin tutib, siyosiy tizimning barqarorligi va



rivojlanishiga ta'sir qiladi. Sababi, yuqori siyosiy madaniyatga ega jamiyat hech qachon qonundan chetga chiqmaydi, aksincha qonunga bo'ysungan holda yashab keladilar. Shuningdek, bunday madaniyat insonlarning poraxo'rlik va mansabni suiiste'mol qilish qanday illatligini, qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini anglab yetishiga sabab bo'ladi. Natijada esa davlat beqarorlikdan, to'qnashuvlardan xoli va ayniqsa korrupsiya ko'rsatkichi sezilarli tushishi kuzatiladi.

Aynan shu va ko'plab sabablar tufayli, bir qancha G'arb mamlakatlari allaqchon o'zlarida siyosiy madaniyatni yuksaltirishga alohida e'tibor berib kelmoqdalar. Bu mintaqada hozirgi kunda fuqarolarning davlat tizimidagi yuqori ishtiroki, ularning davlat siyosatiga befarqmasligi va bunga nisbatan o'zlarining pozitsiyalariga egaligi bilan boshqa mintaqadagi mamlakatlardan ajralib turadi. Masalan, Skandinaviya, Kanada, Shveysariya kabi davlatlarda fuqarolar siyosiy jarayonlarda faol qatnashib keladilar. Shu sababli mustaqilligizning ilk kunlaridanoq O'zbekiston o'z oldiga demokratik huquqiy davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishni bosh maqsad qilib qo'ygan edi. Fundamental islohotlarning muvaffaqiyati esa, albatta, fuqarolarning siyosiy madaniyati darajasiga bog'liq. Shuning uchun fuqarolarning siyosiy madaniyatini yuksaltirish fuqarolik jamiyati shakllanishidagi eng muhim masalalardan biriga aylangan. Bu yo'ldabir qancha ishlar va tadbirlar amalga oshirilmoqda. Misol uchun Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan O'zbekistonda siyosiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan rasmiy qarorlar qatoridan "Fuqarolarning siyosiy faolligini oshirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish" bo'yicha 2021-2025 yillarga mo'ljallangan Konsepsiyasi o'rin olgan. Bu va boshqa turdagi Konsepsiyalar, asosan, siyosiy jarayonlarda fuqarolarning ishtirokini kengaytirish, siyosiy savodxonlikni oshirish, siyosiy institutlar faoliyatini takomillashtirishga kabi muhim qadamlarni o'zida jamlagan. Shubhasiz, bunday ishlar birpasda o'z natijasini bema'ni, lekin keyingi besh, onlikda o'z ta'sirini ko'rsatadi. Albatta siyosiy madaniyatni yuksaltirish uchun ishlab chiqilyotgan qarorlar va konsepsiyalar, asosan, Yangi O'zbekiston bunyodkorlari yoshlarning siyosiy hayotida alohida o'rin egallaydi. Sababi kelajak- yoshlar qo'lida va O'zbekistonning ham yo rivojlanishi yo inqirozga yuz tutishi, jamiyatimizning 55% foizni tashkil etuvchi 19 million yoshlarning gardanidadir. Bu vaziyatni to'g'ri baholagan davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev Yoshlar jamiyatning eng faol va intiluvchan qatlami bo'lishi, lekin siyosiy manipulyatsiyalarga aldanishligini oldini olish uchun ular bilan ishlashni barcha darajadagi rahbarlarning eng ustuvor vazifasi ekanligini bir necha bor ta'kidlab o'tgan. Xususan, yoshlarning erkin fikrlashi, vatanparvarlik ruhini oshirish va jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash bugungi



davr talabi ekanligi ta'kidlagan, chunki yosh avlodning dunyoqarashi mamlakat kelajagini belgilab beradi.

Biroq aholining siyosiy madaniyatini yanada oshirish va kanmchiliklarni bartaraf etish uchun yana qator chora tadbirlar ilgari surilib, yaqin kelajakda quyidagi ishlar amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan. Bu vazifalar siyosiy qarorlar qabul qilinish jarayonida aholining ishtiroki uchun sharoit yaratish. Bunda, avvalambor, saylovlarga kirish imkoniyatini kengaytirish nazarda tutiladi. Ya'ni, hukumat aholiga turli xildagi saylovlarda erkin va teng qatnashish imkoniyatiga ega bo'lib, ular o'z vakillarini tanlash va qarorlarga ta'sir qilishi mumkin bo'ladi. Ikkinchidan esa, mustaqil ommaviy axborot vositalarini yaratish. Hukumat jurnalistlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida so'z va matbuot erkinligini ta'minlashi lozim. Sababi shuki, mustaqil ommaviy axborot vositalari aholining hukumatga ishonchini mustahkamlab, uning legitimligini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, yana bir muhim tadbirlardan biri bu ta'lim tizimini hamda aholining siyosiy jarayonlardan xabardorligini oshirish hisoblanadi. Bunday amaliy tadbirlar nafaqat davlatda siyosiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi, balki jamiyatda demokratiyani ta'minlashda ham muhim qadamlardandir.

Mening fikrimcha, siyosiy ong, siyosiy madaniyatning shakllanishi, eng avvalo, oila tarbiyasi va bolalikda voyaga yetgan jamiyat qadriyatlaridan boshlanadi. Oilada vatanparvarlik, mas'uliyat, qonunlarga hurmat kabi tug'ular singdirilsa, bu uning kelgusidagi fuqarolik pozitsiyasiga asos bo'ladi. Shubhasiz, yoshlar siyosiy ongi va fuqarolik faolligi bir kunda vujudga keladigan hodisa emas, ular ijtimoiy omillar ta'sirida bosqichma-bosqich shakllanadi. Bu kabi ishlarning markazida yoshlar e'tibor beriladi, chunki siyosiy madaniyatli yoshlar- bu kelajakda fuqarolik jamiyatning mustahkam tayanchi, davlat boshqaruvida malakali kadrlar, ijtimoiy hayotda yetakchi kuch demakdir. Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, bugungi globallashuv jarayonida yuqori siyosiy madaniyatni shakllantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoq. Uning qanday ahamiyatga egaligini to'g'ri anglagan davlatlar, hukumatlar kerakli chora-tadbirlar tadbiriq etib kelmoqdalar. Shuningdek, davlatlar bu yo'lda deyarli barcha zarur qarorlar yoshlarning siyosiy ongini rivojlantirish va yuksaltirishga qaratilgani ma'lum. Yoshlar siyosiy madaniyatini shakllantirish esa ko'p qirrali jarayon bo'lib, u ta'lim, tarbiya, axborot siyosati, huquqiy bazani takomillashtirish va jamoatchilik institutlari faoliyatini o'z ichiga oladi. Sababi yoshlar o'z kelajagi haqida tashvishsiz bo'lsa va davlat ularni qo'llab quvvatlayotganini his etsa, ular jamiyat hayotida faol ishtirok etishga, davlat siyosatiga befarq bo'lmaslikka intilishi tabiiy holat. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib yakunda shuni



aytmoqchimanki, siyosiy madaniyatini yuksaltirish jamiyatning barqaror taraqqiyoti va demokratik yangilanishida hal qiluvchi o'rin tutadi. Bu gaplarni Gabriel Almond va Sidney Verbalarning asarlarida o'z tasdig'ini topgan, ya'ni "Demokratiya-u bilan mos keluvchi siyosiy madaniyat bo'lmaguncha yashay olmaydi".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Y.A. Melvil "Siyosatshunoslik" darsligi;
2. A. Heywood "Siyosat" kitobi;
3. O'.B.Bito'rayev "Siyosatshunoslikka kirish" kitobi;
4. <https://inlibrary.uz/index.php/yosc/article/view/86192>
5. <https://cis-legislation.com/document.fwx?rgn=130699&utm>.